

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA KELISHIK KATEGORIYASINING SEMANTIK MA'NOLARI

Sadriddinova Fozila

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti.

yodgorfozila@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15466283>

Annotatsiya. Ushbu maqola otga xos grammatik kategoriyalardan biri – kelishik kategoriyasining semantik ma'nolari haqida. Mavzu o'zbek va arab tillari misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Grammatika, morfologiya, sintaksis, semantika, ot so'z turkumi, ism, grammatik kategoriya, kelishik, qo'shimcha, ma'no.

THE SEMANTIC MEANINGS OF THE CATEGORY OF CASE IN UZBEK AND ARABIC LANGUAGES

Abstract. This article aims to focus on the semantic meanings of the category of cases. The topic is explained using the examples of Uzbek and Arabic languages.

Key words: Grammar, morphology, syntax, noun - part of speech, name, grammatical category, case, affix, meaning.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ КАТЕГОРИИ ПАДЕЖА НА УЗБЕКСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. Эта статья является о семантические значения одно из грамматических категориях – категории падежа. Тема изучена на примере узбекского и арабского языков.

Ключевые слова: Грамматика, морфология, синтаксис, часть речи - имя существительное, имя, грамматическая категория, падеж, аффикс, значение.

KIRISH. Har bir tilda kelishik kategoriyasi bajaradigan sintaktik vazifa, ega bo'lgan morfologik ma'nosi bor. Shu bilan birgalikda, kelishiklar bir qancha semantik ma'nolarga ham ega bo'ladi. Bu ularning gapning qaysi bo'lagiga qo'shib kelishi, ular qo'shilayotgan so'z ma'nosi va uslubiga ham bevosita bog'liq. Gapda kelishik kategoriyasi qo'shimchalarining o'zgarishi orqali butun boshli gap ma'nosi o'zgarib ketishi mumkin.

O'zbek tilidagi har bir kelishikning so'zlarga qo'shib kelganda ifodalaydigan bir qancha semantik - leksik ma'nolari mavjud.

Bosh kelishik subyektlik – gapdagi egalik ma'nosini bildiradi:

Talaba imtihon topshirdi.

Shu bilan birga, mavjudlik, predmetning umumiy nomlanishi ma'nolarini ifodalaydi:

Gepard eng tez yuguradigan hayvon.

Arab tilida ham bosh kelishik(رفع) subyektlik, mavjudlik va predmetning umumiy nomlanishi ma'nolarini ifodalab keladi:

خالد اشترى الكتاب

Xolid kitob sotib oldi.

الجمال سفينة الصحراء

Tuya – sahro kemasi.

Bosh kelishik aniqlik darajasini ham ifodalaydi. Bu kelishikdagi otlar aniq ham, noaniq ham bo'lishi mumkin:

Qush uchdi (aniq bir qush).

Qush parvoz qiladi (umuman barcha qushlar).

Arab tilida aniqlik ma'nosini berish uchun noaniq shakldagi so'z boshiga aniqlik artikli (ال) qo'shiladi:

بيت – umuman uy

البيت – aniq bir uy

Tushum kelishigi obyektlik ma'nosini bildiradi. Tushum kelishigi ifodalaydigan ma'nolar:

- Harakat yo'naltirilgan aniq ob'yekt:

Saida *xonani* yig'ishtirdi.

- Tanlanganlik:

U *Saidni* chaqirdi.

- Ta'sirlanish ma'nosi:

Botir *singlisini* yig'latdi.

- Tushuncha va hissiyot obyekt. Fikrlash, tushunish, eslash kabi holat fe'llari bilan kelganida shunday ma'no ifodalaydi:

Men *uni* yaxshi ko'raman.

Arab tilida ham nasb holatidagi vositasiz to'ldiruvchi orqali yuqoridagi ma'nolarni ifodalash mumkin:

صابر غسل طبقه – Sobir *idishini* yuvdi.

علي ضرب أخاه – Ali *ukasini* urdi.

أضحك قاسم الطلاب – Qosim *talabalarni* kuldirdi.

أنا نسيت الشعر – Men *she'rni* esimdan chiqarib qo'ydim.

Gapdagi obyektning tushum kelishigida ifodalanishi unga aniqlik ma'nosini ham beradi: *kitob* o'qidim – *kitobni* o'qidim

Arab tilida esa vositasiz to'ldiruvchi aniqlik ma'nosiga ega bo'lishi uchun unga (ال) artiklini qo'shish kerak:

شربت الماء – Men *suvni* ichdim.

Jo'nalish kelishigi, umumiy olganda, yo'nalish ma'nosini bildiradi. Mazkur kelishik yana quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Harakatning yo'nalishi ma'nosi:

Talaba *universitetga* bordi.

2. Manzil(adresat). Harakat kimga qaratilganini ko'rsatadi:

Oyimga sovg'a oldim.

3. Payt (vaqt) ma'nosi. Payt otlariga qo'shilib harakatning vaqtini bildiradi:

Tongga yaqin uyg'ondim

4. Sabab va vosita ma'nosi:

Bilmaganiga tushuntirdim.

5. Maqsad va niyat ma'nosi:

Yozishga bordim.

6. Ruhiy holat ma'nosi:

Yordamga muhtoj edi.

Arab tilidagi (إلى) predlogi orqali harakatning yo'nalishi, kimga qaratilgani ma'nolarini ifodalash mumkin:

ذهبت إلى المستشفى – Men *shifoxonaga* bordim.

أعطيت الأزهار إلى معلمتي – Ustozimga *gular* berdim.

Yuqorida qolgan ma'nolarni ifodalash uchun esa boshqa predloglardan foydalaniladi.

Shuningdek, arab tilida (إلى) predlogi o‘zbek tilidagi (-gacha) kabi harakatning tugash joyi yoki vaqtini ham anglatib keladi:¹

قرأت إلى الليل – Tungacha o‘qidim.

Shunday qilib, jo‘nalish kelishigi va bilan ko‘makchili otdan ifodalangan vositali to‘ldiruvchi yordamida kengaygan gap invariant sifatida bir umumiy gap modelini tashkil etsada, lekin bu invariant nutq tarkibida turli leksik variantlar bilan to‘ldirilgan xilma-xil semantik-sintaktik variantlar sifatida namoyon bo‘ladi.²

Chiqish kelishigi manbani bildiradi. U harakatning boshlanish nuqtasini ko‘rsatadi:

Karim kutubxonadan kelyapti.

Shuningdek, quyidagi ma’nolarni ham ifodalab keladi:

1. Harakat sababi:

Saida xursandchilikdan sakradi

2. Vosita:

Darsni kitobdan tayyorladi.

3. Shaxs yoki narsa bilan aloqaning uzilishi, ajrashish, uzoqlashish ma’nosi:

Ali maktabdan ketdi.

4. Harakatning boshlanish vaqti:

Bugun tongdan dars qildim.

5. Solishtirish, qiyoslash:

Saidning uyi Hamidnikidan kattaroq ekan.

6. Manbani, narsanining nimadan qilingani ifodalaydi:

Mana shu uzuk kumushdan.

Arab tilidagi (من) predlogi orqali ham yuqoridagi barcha ma’nolarni ko‘rsatish mumkin:

1. سعيدة قفزت من الفرح

2. كتب الدرس من الكتاب

3. ذهب علي من المدرسة

4. درست اليوم من الصباح

5. بيت سعيد أكبر من بيت حميد

6. هذا خاتم من الفضة

O‘rin-payt kelishigi joy yoki vaqtni bildiradi. U joy, vaqt va holat ma’nolarini ifodalaydi:

Kitob javonda turibdi.

Yozda tog’ga chiqamiz.

Arab tilida ham bu ma’nolarni (في) predlogi bilan ifodalash mumkin:

أدرس في الأكاديمية – Men akademiyada o‘qiymen.

قرأ أحمد الكتاب في الصباح – Ahmad kitobni tongda o‘qidi.

Shu bilan birga, egalik holati ma’nosini bildiradi:

Menda mashina bor.

Arab tilida esa egalik ifodalaydigan “...da bor” ma’nosini ko‘rsatish uchun (عند) predlogili birikma gapning boshiga chiqariladi:

عندي سيارة – Menda mashina bor.

O‘rin-payt kelishigi ko‘chma ma’noda – ruhiy holat yoki ichki kechinma, hissiyotlarning joyi ma’nosida ham qo‘llaniladi:

Yurakda iz qoldirdi.

1

2

Arab tilida ham (في) predlogi orqali yuqoridagi ma'noni ifodalash mumkin:

هي سَكِينَةٌ فِي قَلْبِي – *Qalbmida sakinat.*

O'rin-payt kelishigi mavjudlikni ham ifodalaydi:

Uymiz *oldida* katta bog'.

Arab tilida mavjudlikni ifodalovchi "...da bor" ma'nosini berish uchun (في) predlogili birikma gapning boshiga o'tkaziladi:

فِي الْبَيْتِ قَهْوَةٌ *Uyda qahva bor*

Qaratqich kelishigi egalik va nisbat ma'nosini bildiradi. Qaratqich kelishigining ma'nolari:

1. Egalik, mansublik:

Alining daftarinini oldim

2. Tarkibiylilik:

Pirogning uni kam bo'lib qolibdi.

3. Qism va butun munosabati:

Kozimning qo'li sindi

4. Sifatdoshlar bilan kelganda harakatning egasi ma'nosi:

Ustozning aytgan gaplari to'g'ri.

Arab tilidagi qaratqichli birikma (الإضافة) orqali yuqoridagi barcha ma'nolarni ko'rsatish mumkin:

1. أَخَذْتُ دَقْتَرًا عَلَيَّ

2. قَدْ كَانَ دَقِيقُ الْكَعْكَةِ قَلِيلًا

3. كَسَرَ ذِرَاعُ كَاسِمٍ

4. قَوْلُ مُعَلِّمٍ صَحِيحٌ

O'zbek tilida bir so'zning kelishigini o'zgartirish orqali, uning ma'nosini ham o'zgartirish mumkin:

U maktabga ketdi – yo'nalish ma'nosi

U maktabdan ketdi – manba ma'nosi

Arab tilida ham buni ko'rish mumkin:

ذَهَبَ إِلَى الْمَدْرَسَةِ

ذَهَبَ مِنَ الْمَدْرَسَةِ

Shuningdek, arab tilida predlogning o'zgarishi orqali butun bir fe'lning ma'nosi umuman boshqa ma'noga o'zgarib ketishi holatlari ham bor:

دَعَوْتُ لَكَ *Men seni duo qildim.*

دَعَوْتُ عَلَيْكَ *Men seni qarg'adim.*

Bosh kelishikdagi ega va kesim munosabatidagi ma'noni qaratqich kelishigidagi birikma orqali ham ifodalash mumkin. Bunda uning kommunikativ bo'linishi va ideal xususiyati yo'qoladi, ammo mazmuni saqlanib qoladi:

O'quvchi yozdi – *O'quvchining yozishi.*

Arab tilida ham bu holatni kuzatish mumkin:

كُتِبَ الْطَالِبُ كَتَبَ الْطَالِبُ

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek tilidagi kelishiklar bir qancha semantik ma'nolarni ifodalaydi. Bu kelishik qo'shilayotgan so'zning turkumiga, ma'nosiga, gapda kelgan o'rniga ham bevosita bog'liq. Mazkur kelishiklarning ma'nolarini arab tilida ham e'rob va predloglar orqali ifodalash mumkin.

REFERENCES

1. Turniyozov N., Rahimov A., O‘zbek tili. – Samarqand.: Zarafshon, 2006. – 180 b.
2. Sayfullayeva R., Zamonaviy o‘zbek tili. – Toshkent.: O‘zMU, 2009. – 522 b.
3. Каримов С., Ўзбек тилининг грамматик услубияти. – Самарқанд.: Зарафшон, 2012. – 164 б.
4. أبو القاسم الزجاجي. تحقيق الدكتور علي توفيق الحمد. الجمل في النحو. – بيروت. مؤسسة الرسالة. 1408هـ. صفحة 523
5. أبو البقاء عبد الله بن الحسين العكبري. تحقيق غازي مختار طليمات والدكتور عبد الإله نبهان. الباب في علل البناء والإعراب. الجزء الأول. – دمشق. دار الفكر. 2001م. صفحة 1184.